Tashmatova Rano Gaibovna, Qodirov Nurhayot Normuhammad o'g'li	
Theoretical basis of the use of modern information technologies in accounting	1154
Annayev Abdurasul Abdurashidovich, Tojiboyev Jasurbek Shavkat o'g'li, Rustamov Suxrob Asror o'g'li	
Moliyaviy bozorlar chayqalmoqda: investorlar uchun yangi signalmi?	1158
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....	1166
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxonov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari	1194
Turopolov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
“Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	
Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi	1268
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Irismatovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	



IPOTEKA OBLIGATSIYALARINING MAMLAKAT IQTISODIYOTINING O'SISHIDAGI AHAMIYATI HAMDA MAZKUR OBLIGATSIYALAR BILAN BOG'LIQ RISKLAR



Ibromimov Yorqinjon To'liqin o'g'li

PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

yorkinjonibrokhimov@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-8203-5245>

Annotatsiya: Mazkur maqolada, kapital bozorini rivojlantirish orqali mamlakatda uy-joy bozorini rivojlantirish, ipoteka obligatsiyalarini chiqarish hamda ular bog'liq tizimli xatarlar, tijorat banklarining likvidligini boshqarishga qo'yiladigan talablarni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari tomonidan chiqarilgan korporativ obligatsiyalarning yuqori likvidligi masalasi bo'yicha tahliliy o'rganishlar amalga oshirilgan. Bundan tashqari, ipoteka obligatsiyalari bo'yicha garov ta'minotlari to'g'risidagi ma'lumotlarning shaffoligi hamda ularni monitoring qilish dolzarbligi tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: ipoteka obligatsiyalari, yuqori likvidlik aktivlar, ta'minot, tartibga solish qumdoni, bozor narxiga nisbatan qayta baholash, ta'minlangan qarz majburiyatlari, risk, svop.

Abstract: This article analyzes the development of the housing market through the advancement of the capital market, the issuance of mortgage-backed securities, as well as the systemic risks associated with them. It also examines the alignment of commercial banks' liquidity management requirements with international standards, and the high liquidity of corporate bonds issued by mortgage refinancing institutions. In addition, the importance of transparency in information related to collateral for mortgage-backed securities and the relevance of monitoring these securities are explored.

Key words: mortgage-backed securities, high liquidity assets, collateral, regulatory sandbox, mark-to-market, collateralized debt obligations, risk, swap.

Аннотация: В данной статье проведён аналитический обзор развития рынка жилья через развитие рынка капитала, выпуск ипотечных облигаций и связанных с ними системных рисков, а также приведение требований к управлению ликвидностью коммерческих банков в соответствие с международными стандартами. Кроме того, рассмотрены вопросы высокой ликвидности корпоративных облигаций, выпускаемых организациями по рефинансированию ипотеки. Также исследована актуальность прозрачности информации о залоговом обеспечении ипотечных облигаций и необходимость их мониторинга.

Ключевые слова: ипотечные облигации, высоколиквидные активы, обеспечение, регуляторная песочница, переоценка по рыночной стоимости, обеспеченные долговые обязательства, риск, своп.



KIRISH

Bugungi kunda ipoteka kreditlari uy-joy qurilishini investisiyalashning eng ishonchli vositalaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda samarali ipoteka kreditlash tizimini yaratish muhim moliyaviy va ijtimoiy-iqtisodiy vazifa bo'lib, bu aholini uy-joy bilan ta'minlash muammolarini hal qilishga hamda qurilish va unga bog'liq boshqa sohalarni ham rivojlantirishni tezlashtirishga yordam beradi.

Uy-joyga investisiya kiritish hajmi va dinamikasi makroiqtisodiy muvozanatga katta ta'sir ko'rsatadi va keng miqyosli takror ishlab chiqarishni ta'minlaydi, shuningdek, ipoteka kreditlash tizimini takomillashtirish orqali iqtisodiyotning real sektorini rag'batlantirish mumkin. Ipoteka bozorini rivojlantirish moliya, jumladan kapital bozori vositalaridan samarali foydalanish orqali qo'shimcha moliyalashtirish manbaalarini vujudga keltirish, bu orqali aholiga arzon kredit resurslarini tadim etish imkoniyatini yaratish mumkin.

Mamlakatda ipoteka bozorini rivojlanishini rag'batlantirishda uning afzalliklari va kamchiliklarini, moliya bozorida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan jiddiy inqirozlarni oldini olishda ipoteka kreditlari va ipoteka obligatsiyalari bilan bog'liq tizimli xatarlarni inobatga olish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunga qadar, kapital va pul bozorini rivojlantirish, ipoteka obligatsiyalarini chiqarish orqali iqtisodiyotning real sektorini rag'batlantirish, shuningdek, ushbu qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq risklarni aniqlash va oldini olish borasida qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Jumladan, J. Campbell (2020) fikriga ko'ra, ipoteka kreditlari bo'yicha to'lov muddatini uzaytirish imkoniyatini yaratish orqali iste'mol o'sishini barqarorlashtirish, defoltlarni oldini olish va farovonlikni oshirish, shu bilan birga riskni yoqtirmaydigan kreditorlar uchun arzon moliyalashtirishni taklif qilish mumkin.

Gürtler, M. hamda Neelmeier, P. (2019), ipoteka bilan qoplangan qimmatli qog'ozlarning risklarini baholash nomli ilmiy ishida, Evropa ittifoqi mamlakatlarida chiqarilgan ipoteka bilan qoplangan obligatsiyalar bo'yicha transmilliy ma'lumotlar to'plamlari orqali tekshirish mumkinligi hamda davlat qimmatli qog'ozlari va ipoteka bilan qoplangan obligatsiyalar o'rtasida qoplama aktivlarining sifatini tavsiflovchi o'zgaruvchilar ta'sirida farqlar mavjudligi tadqiq qilingan.

Skyrman, V. (2023), qoplangan obligatsiyalar, bir tomondan, kredit tashkilotlarini barqaror bank moliyalashtirish vositalari va garov ta'minoti bilan ta'minlash orqali kapitalizmni barqarorlashtiradi va moliyaviy xatarlarga yo'l ochib beradi. Bundan tashqari, qoplangan obligatsiyalar bozorlarining kengayishi Evropaning ko'p qismida ipoteka sekyuritizasiyasini cheklab qo'ydi. Boshqa tomondan, qoplangan obligatsiyalarni inqirozga moyil bo'lgan uy-joy ipotekasi bilan ta'minlangan obligatsiyaga nisbatan uy-joy qurilishini moliyalashtirish uchun ancha sodda, barqaror va samarali vosita sifatida qabul qilish mumkin.

Rasulov, D (2024) o'zining ilmiy maqolasida, ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirishning asosiy modellari sifatida moliya bozori orqali ipoteka qimmatli qog'ozlarini chiqarish, hamda likvidlikni ta'minlash orqali ipoteka obligatsiyalarining ikkilamchi bozorini keltirib o'tgan.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, sintez kabi usullaridan foydalanilgan. Adabiyotlarni tahlil qilishda Web of Science va Jstorg ilmiy ma'lumotlar bazasi, jahon fond birjalari guruhini statistik ma'lumotlar bazasi, mahalliy va xorijiy me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanilgan. O'zbekiston moliya bozorini o'rganishda O'zbekiston Respublikasi rasmiy statistik ma'lumotlaridan, shuningdek, rasmiy manbaalardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ipoteka bozorining rivojlanishi aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyojini qondirishda va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu bozorda ipoteka obligatsiyalarining joriy etilishi moliyaviy resurslarni uzoq muddatga jalb qilish, banklar likvidligini saqlash va kapital bozorini chuqurlashtirishda katta imkoniyat yaratadi. Shuningdek, qimmatli qog'ozlar orqali ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirish, moliya bozori ishtirokchilari uchun shaffof va ishonchli investisiya muhitini ta'minlaydi. Jahon amaliyotida ipotekaga asoslangan qimmatli qog'ozlar iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi muhim moliyaviy vosita sifatida qayd etilmoqda.

Quyida keltirilgan 1-rasmda mamlakatimizda aholiga Huqumat, banklar va Ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi mablag'lari hisobidan ajratilgan kreditlar hajmini ko'rishimiz mumkin. Unga muvofiq, Ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi mablag'lari hisobidan resurslar 2020 yildan boshlab ajratilib, 2024 yilning uchinchi choragida 1 252 mlrd. so'm ya'ni jami ajratilgan kreditlarning 10,7 foizini tashkil qildi.



1- rasm. Aholiga ajratilgan ipoteka kreditlari va ularning manbaalari¹.

Mamlakatimiz va bizga qo'shni mamlakatlarda, jumladan Rossiya, Qozog'iston va Qirg'iziston davlatlaridagi ipoteka kreditlar bozorini tahlil qiladigan bo'lsak, ajratiladigan ipoteka kreditlarini o'rtacha qiymati O'zbekistonda 20 ming AQSh dollarini va ipoteka kreditining maksimal muddati 20 yilni tashkil qilsa, ushbu ko'rsatkich Rossiyada 53 ming AQSh dollari va 30 yil, Qozog'istonda 32 ming AQSh dollari va 25 yil, Qirg'izistonda 42 ming AQSh dollari va 25 yilni tashkil qiladi.

1- jadval. Mustaqil davlatlar hamdo'stligining ayrim mamlakatalaridagi ipoteka kreditlari bozori ma'lumotlari.²

Кўрсаткичлар	 Ўзбекистон	 Россия	 Қозоғистон	 Қирғизистон
Марказий банкнинг асосий ставкаси	14 %	16 %	16.5 %	9 %
Ипотека кредитининг ўртача йиллик фоиз ставкаси	17.10 %	7.11 %	14.40 %	17.00 %
Ипотека кредитининг ўртача муддати	18.6 йил	23.6 йил	9.8 йил	12.2 йил
Ипотека кредитининг энг кўп берилган муддати	20 йил	30 йил	25 йил	25 йил
Ипотека кредити бўйича ўртача сумма (АҚШ долларида)	\$20,230	\$53,468	\$32,763	\$42,610
Ипотека баланси / ЯИМ				
2019	3.8%	17.5%	3.0%	2.6%
2020	4.9%	9.4%	5.0%	3.8%
2021	5.3%	10.0%	3.6%	2.9%
2022	5.2%	10.0%	4.0%	2.8%
2023	5.5%	10.5%	4.4%	2.4%

1 Осиё иккиламчи ипотека бозори ассоциацияси маълумотлари https://www.asmma.asia/files/presentation-slide/Uzbekistan/uz_housing_and_mortgage_market_uzmrc_activity_for_asmma.pdf

2 Осиё иккиламчи ипотека бозори ассоциацияси маълумотлари https://www.asmma.asia/files/presentation-slide/Uzbekistan/uz_housing_and_mortgage_market_uzmrc_activity_for_asmma.pdf



Пойтахтдаги уй-жой нархлари (1 кв.м. учун АҚШ долларида)				
Бирламчи уй-жой бозори	\$1475	\$4180	\$1340	\$1230
Иккиламчи уй-жой бозори	\$1310	\$3965	\$1395	\$1350

Yuqoridagi jadvalda, mamlakatimizda va qo'shni davlatlarda ipoteka kreditlarining yalpi ichki mahsulotga nisbati aks ettirilgan bo'lib, barcha davlatlarda ushbu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlarga, masalan AQShda 45 foiz, Yaponiyada 40,7 foiz, Buyuk Britaniyada 115 foizga nisbatan ancha past ko'rsatkichni tashkil qilgan. Bu esa, ipoteka bozorini rivojlantirish orqali real iqtisodiyotni hamda yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichini oshirish imkoniyati mavjudligini anglatadi.

O'zbekiston iqtisodiyotini yanada o'sishini ta'minlash, mamlakatimizda yangi uy-joylar qurilish ko'lamini hamda ipoteka mahsulotlari turlarini kengaytirib borish maqsadida, 2025 yil 21 fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-26-sonli "Uy-joy va ipoteka bozorini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonda "so'nggi yillarda aholi soni yiliga qariyb 800 ming nafarga, yangi oilalar soni esa 300 mingga ortayotgani uy-joyga bo'lgan talabni qondirish bo'yicha ishlarni jadallashtirishni taqozo etayotganligi, shuningdek, respublikadagi ko'p kvartirali uy-joy fondining qariyb 40 foizini tashkil etayotgan 2-3 qavatli uylar o'rniga, yuqoriga (vertikal) o'stirish tamoyili asosida ijtimoiy soha ob'ektlari va yashil maydonlarga ega zamonaviy uy-joylar qurish uchun etarlicha imkoniyatlar mavjudligi"³ keltirib o'tildi.

Shuningdek, ushbu farmonga muvofiq, xalqaro moliya institutlariga O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida obligatsiyalar chiqarishga, Ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi huzurida ipoteka obligatsiyalarini chiqarishga ixtisoslashtirilgan maxsus vakolatli tashkilot faoliyatini yo'lga qo'yish, maxsus vakolatli tashkilotga ipoteka kreditlari jamlanmalari bilan ta'minlangan va yuqori likvidli aktiv maqomiga ega bo'lgan ipoteka obligatsiyalarini chiqarishga ruxsat berildi hamda ipoteka obligatsiyalarini chiqarish amaliyotini tartibga solishni nazarda tutuvchi "Tartibga solish qumdoni" maxsus huquqiy rejimini joriy etilishi belgilandi.

Bundan tashqari, "Tartibga solish qumdoni" maxsus huquqiy rejimi doirasida maxsus vakolatli tashkilotning ipoteka obligatsiyalari "Toshkent respublika fond birjasi" AJda joylashtirilishi va ularning muomalasi ushbu birja orqali amalga oshirilishi, Markaziy bank va tijorat banklari o'rtasidagi ipoteka obligatsiyalari bilan REPO operatsiyalarni "O'zbekiston respublika valyuta birjasi" AJ orqali amalga oshirilishi belgilandi.

Ipoteka bozorini rivojlanishini rag'batlantirishning qator afzallik va kamchiliklari bo'lib, uni quyidagi 2-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

2- jadval. Ipoteka bozorini rivojlanishiga oid afzallik va kamchiliklar⁴.

Субъектлар	Афзалликлар	Камчиликлар
Қарз берувчи	- Банкларга фойда келтиради; - Узоқ муддатли кредит муносабатлари доимий мижозлар яратиш имконини беради; - Кафолатланган кредитлар банк тизимини барқарорлаштиради.	- Банк ресурсларининг узоқ муддатга камайиши; - Паст маржали банк фаолияти; - Гаров сифатидаги актив ликвидликни йўқотиши мумкин; - Кредит тўланмаслиги хавфи; - Тўловларни тўхтатиб туриш бўйича мораторий жорий қилиниши мумкин.
Қарз олувчи	- Аҳоли учун уй-жой сотиб олиш имконияти; - Уй-жой муаммосини ҳал қилиш; - Қарз олувчи мулкка эгалик қилади ва уни рўйхатдан ўтказиши мумкин; - Якка тартибда тўлов жадвалини шакллантириш имконияти; - Истеъмол кредитларига нисбатан паст фоиз ставкалари.	- Қарз тўланишидан олдин қарз олувчи уй-жойга эгалик ҳуқуқига эга бўлади, лекин банк рухсатисиз уни сота олмайди; - Кредит бўйича фоиз ставкалари (шартномада ўзгарувчан фоиз ставкаси белгиланган бўлса) ошиши хавфи; - Қарз олувчи учун қўшимча харажатлар: нотариус хизмати, суғурта, кўчмас мулк экспертизаси.

3 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 21 февралдаги "Уй-жой ва ипотека бозорини янада ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПФ-26-сонли Фармони

4 Bazilinska & Panchenko, Olena, Mortgage Lending as a Component of Economic Growth, Scientific Papers NaUKMA. Economics, 2020, 10.18523/2519-4739.20205.1.3-9



Давлат	- Янги иш ўринларини яратиш; - Аҳолининг маълум тоифаларини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш; - Реал иқтисодиётга инвестиция манбаи; - Иқтисодий ўсишни рағбатлантириш; - Пул массасини тартибга солиш воситаси сифатида ишлатиш.	- Иккиламчи қimmatли қoғoзлар бoзoрида мoлиявий инструментлар билан боғлиқ кредит механизмларидан фойдаланиш орқали мoлия бoзoрида инқирoз юзaга кeлиш хавфи.
Кўчмас мулк бозори	- Аҳоли жамғармаларини юқори даромадли кўчмас мулк бозорига жалб қилиш; - Қурилиш саноатининг ривожланишини таъминлаш; - Уй-жой бозорининг инвестициявий жозибадорлигини ошириш.	

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga asosan, ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorida moliyaviy instrumentlar bilan bog'liq kredit mexanizmlaridan foydalanish orqali moliya bozorida inqiroz yuzaga kelish xavfi mavjud ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu holatda, inqirozni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablardan biri sifatida ajratilayotgan kreditlar bo'yicha qarz oluvchilar tomonidan to'lanayotgan summalarning to'liq va o'z vaqtida yoki kechikishlar mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarning shaffof va ishonchli emasligi, shuningdek, foyda olish maqsadida to'lov qobiliyatiga ega bo'lmagan shaxslarga ipoteka kreditlarining ajratilishi hamda ushbu kreditlar ustiga sekyuritizatsiya yo'li bilan qimmatli qog'ozlar emissiya qilinishini keltirishimiz mumkin.

Mamlakatimizda ham ipoteka bozorini rivojlantirishning dastlabki bosqichlarida kapital bozoridagi vositalari bilan oldi-sotdi va boshqa operatsiyalar amalga oshirilishi uchun to'g'ri ishlaydigan va qulay infratuzilma yaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ipoteka qimmatli qog'ozlarini muomalasi fond birjasida va mazkur qog'ozlar bilan repo operatsiyalari valyuta birjasida alohida amalga oshirilishi, repo operatsiyalarida ayrim xavflarni keltirib chiqarishi mumkin. Birinchidan, qimmatli qog'ozning bozor narxi fond birjasida shakllanishi, fond birjasining mavjud savdo tizimidagi ma'lumotlar avtomatlashtirilgan holda boshqa tizimlarga uzatish imkoniyatining yo'qligi natijasida, ipoteka qimmatli qog'ozlari bilan repo bitimlarini tuzishda haqiqiy bozor narxini aniqlash imkoniyatining yo'qligi, shuningdek, ushbu qimmatli qog'ozlar bo'yicha narxlar keskin o'zgarganda repo bitimlari bilan bog'liq risklarni baholab borishning (Mark-to-market) imkoniyati yo'q. Ikkinchidan, qimmatli qog'ozni dastlabki sotuvchisi tomonidan reponing ikkinchi qismi bo'yicha pul mablag'lari o'z vaqtida qaytarib berilmaganda, qimmatli qog'ozning Markaziy bank ixtiyorida qolib ketish xavfi yuzaga keladi. Ushbu xavfni boshqarish maqsadida, Markaziy bank tomonidan mazkur qimmatli qog'ozlar repo bitimining birinchi qismi bo'yicha sotib olinayotganda yuqori stavkali diskont stavkalari qo'llanilishi lozim, shuningdek, Markaziy bank fond birjasiga to'g'ridan-to'g'ri a'zo bo'lishi yoki mijoz sifatida biror investisiya vositachisi orqali savdolarida ishtirok etishini ta'minlash lozim yoxud ipoteka qimmatli qog'ozlari bilan ikkilamchi bozordagi savdolarini fond birjasi bilan bir qatorda valyuta birjasida muomalada bo'lishiga imkoniyat yaratish maqsadga muvofiq.

Bundan taqshari, bugungi kunda, garov reestri ma'lumotlariga asosan, ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi tomonidan ajratilgan resurslarga garov ta'minoti sifatida taqdim etilgan kreditlar "kreditlarga bo'lgan talab qilish huquqlari" ko'rinishida, alohida kreditlarning unikal raqamlari asosida emas, balki umumiy "pool" shaklida ro'yxatdan o'tkazilmoqda. Shuni inobatga olgan holda, kelgusida ushbu kreditlarni individual darajada tahlil qilish, ularni standart toifalarga kiritish va monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida, har bir kreditni unikal raqami asosida alohida qayd etish amaliyotini joriy etish maqsadga muvofiq. Bu yondashuv ma'lumotlarning shaffofligini oshirish va ipoteka portfelining sifatli tahlilini ta'minlashga xizmat qiladi hamda investorlar va nazorat organlari uchun ishonchli va aniq axborot maydonini yaratadi.

Ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasining banklarga ajratayotgan resurs mablag'lari uchun garov sifatida qabul qilayotgan kreditlar bo'yicha talab qilish huquqlarini tahlil qiladigan bo'lsak, Ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasining talabiga muvofiq banklar o'zlari taqdim etayotgan ma'lumotlarga asoslangan "standart" toifasiga kiruvchi kreditlar portfelini garov sifatida taqdim etish evaziga ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasidan katta miqdorda resurs mablag'larini jalb qilishmoqda. Ushbu holatda, banklar tomonidan taqdim etilayotgan kredit portfelini haqiqatda standart toifasiga kirishini Ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi tomonidan tekshirib ko'rishning va uni doimiy monitoring qilib borishning imkoni yo'q yoxud bu to'g'risidagi ma'lumotlar etarlicha shaffof emas. Bu esa moliya bozorini xavfga qo'yadi, hamda kompaniyaning korporativ obligatsiyalarini likvidligi past bo'lgan aktiv sifatida baholanishiga olib keladi.



Yuqoridagi xavflar darajasini kamaytirish maqsadida Ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi tomonidan chiqarilayotgan korporativ va ipoteka obligatsiyalar bo'yicha garov ta'minoti sifatida kreditlarga bo'lgan talab huquqi qo'yilganda, uni bank taqdim etayotgan ma'lumotlarga nisbatan emas, balki Markaziy bank tizimida mavjud ma'lumotlarga asosan "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi"gi Nizom talablariga muvofiqligi tekshiruvdan o'tkazilib ruxsat berilishi maqsadga muvofiq. Buning sababi sifatida tijorat banklari foyda olish maqsadida barcha kreditlarni standart toifasi sifatida ko'rsatishga harakat qiladi, buning natijasida mamlakatda ta'minotida to'lovlari o'z vaqtida amalga oshirilmagan kreditlardan iborat bo'lgan ipoteka obligatsiyalar hajmi ortishiga va bu eng so'nggida iqtisodiy-moliyaviy inqirozga olib kelishi mumkin.

Xususan, 2008 yildagi global moliyaviy inqiroz tajribasi ipotekaga bog'liq moliyaviy instrumentlarning, jumladan, CDO (ta'minlangan qarz majburiyatlari) va CDS (qarz defoltiga qarshi svoplar) kabi tavakkalchilikka ega bo'lgan vositalar qanday salbiy oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkinligini yaqqol namoyon etdi. Shuning uchun ham ushbu instrumentlarni joriy etishda tizimli xatarlarni oldindan baholash va nazorat tizimini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyatini inobatga olgan holda mazkur obligatsiyalar chiqarish va muomalasini tartibga solish hamda kapital bozorni rivojlantirish, shuningdek, mavjud risklarni risklar oldini olish maqsadida quyidagilar taklif qilinadi:

Mamlakatimizda ipoteka obligatsiyalarini rivojlantirishda ehtiyotkorlik va bosqichma-bosqich yondashuvni tanlash, bozor ishtirokchilarining moliyaviy savodxonligini oshirish hamda xalqaro standartlarga asoslangan normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

Ipoteka obligatsiyalari va ular bilan bog'liq boshqa qimmatli qog'ozlarning shaffofligi, ta'minoti va risklarni taqsimlash mexanizmi aniq va ishonchli tarzda tashkil etish;

Markaziy bank fond birjasiga to'g'ridan-to'g'ri a'zo bo'lishi yoki mijoz sifatida biror investisiya vositachisi orqali savdolarida ishtirok etishini ta'minlash lozim yoxud ipoteka qimmatli qog'ozlari bilan ikkilamchi bozordagi savdolarini fond birjasi bilan bir qatorda valyuta birjasida muomalada bo'lishiga imkoniyat yaratish;

Ipoteka obligatsiyalari ta'minotini tashkil etuvchi ajratilgan kreditlar bo'yicha qarz oluvchilar tomonidan to'lanayotgan summalarning to'liq va o'z vaqtida yoki kechikishlar mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarning doimiy e'lon qilib borilishi lozim;

Sifati bo'yicha turli tasnifdagi kreditlar bo'yicha indekslar yaratilish va ularning doimiy ravishda o'zgarib borishi bo'yicha ma'lumotlar ommaviy e'lon qilinishi lozim;

Ipoteka obligatsiyalar bilan bir qatorda CDO (ta'minlangan qarz majburiyatlari) va CDS (qarz defoltiga qarshi svoplar) kabi moliyaviy instrumentlar bo'yicha ham mamlakatimizning fond va valyuta birjalarida savdolarini tashkillashtirish imkoniyatlarini yaratish maqsadga muvofiq;

Ipoteka obligatsiyalari va boshqa shu kabi moliyaviy instrumentlar bilan bog'liq risklarni oldini olish maqsadida ularning ta'minotida turgan kreditlarni baholab borish metodologiyasini ishlab chiqilishi lozim;

"Elektron hukumat" tizimining idoralararo integrasion platformasi tomonidan fuqarolarning to'lov qobiliyatini ko'rsatib turuvchi indeksni ommaviy ravishda e'lon qilib borish tartibini joriy qilish lozim.

foydalanilgan manbalar ro'yxati

1. Campbell, J., Clara, N., & Cocco, J. (2020). Structuring Mortgages for Macroeconomic Stability. Banking & Insurance eJournal. <https://doi.org/10.2139/ssrn.3135366>.
2. Gürtler, M., & Neelmeier, P. (2019). Risk assessment of mortgage covered bonds: International evidence. Finance Research Letters. <https://doi.org/10.1016/J.FRL.2018.05.004>.
3. Skyrman, V. (2023). Why didn't Europe securitise more? The institutionalisation of covered bonds as an efficient instrument for financialisation. New Political Economy. <https://doi.org/10.1080/13563467.2023.2230545>
4. Doniyor Rasulov. (2024). Ipoteka kreditini qayta moliyalashtirishning asosiy modellari. Yashil Iqtisodiyot Va Taraqqiyot, 2(12), 8–13. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14608829>
5. Осиё иккиламчи ипотека бозори ассоциацияси расмий веб саҳифаси маълумотлари https://www.asmma.asia/files/presentation-slide/Uzbekistan/uz_housing_and_mortgage_market_uzmrc_activity_for_asmma.pdf
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 21 февралдаги "Уй-жой ва ипотека бозорини янада ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПФ-26-сонли Фармони
7. 2015 йил 13 июндаги Ўзбекистон Республикаси Марказий банки Бошқарувининг "Тижорат банкларида активлар сифатини таснифлаш ва активлар бўйича эҳтимолий йўқотишларни қоплаш учун заҳиралар шакллантириш ҳамда улардан фойдаланиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида"ги қарори
8. "Ўзбекистон Республикаси Гаров реестри" ДУК веб саҳифаси маълумотлари



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>